XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-sentabr VI-84-105-4-209-K/24 Shahrisabz shahar

Shahrisabz shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Shahrisabz shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 1-avgustdagi Shahrisabz shahar hokimiga yuborilgan 01-105-sonli xat orqali ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Shahrisabz shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 2-avgustdagi B-01/11-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Shahrisabz shahar ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Shahrisabz shahar bilan chegaradosh bo‘lgan Shahrisabz va Kitob tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

5. Shahrisabz shahar ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligiiningshahar bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Sessiya raisi MUXTOROV SHOHRUH BURXONJONOVICH

Xalq deputatlari Shahrisabz shahar
Kengashining
2024-yil 21-sentabrdagi
VI-84-105-4-209-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrining chegara

TAVSIFI

Kitob va Shahrisabz tumanlari va Shahrisabz shahar chegaralari tutashgan joydagi ariq bo‘yida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda *(shimoliy kenglik* 39°6'0,045"*, sharqiy uzunlik* 66°49'3,227"*).*

A dan B gacha Kitob tuman yerlari bilan 1-3 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 810 metr keyin sharqiy- shimoliy sharqiy yo‘nalishda 833 metr so‘ng beton to‘siq bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 183 metr masofani o‘tib,so‘ngra dala yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan avval shimoliy yo‘nalishda 110 metr,keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr masofani o‘tib temir yo‘liga tutasjhadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°6'25,055"*, sharqiy uzunlik* 66°50'9,684"*).*

2-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining avval shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 28 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr ,so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 381 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 468 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 374 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 358 metr masofani o‘tib, quruq chegara chizig‘iga o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 612 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 109 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi hamda qishloq ichki yo‘lining avval janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 164 metr, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 176 metr masofada o‘tadi va umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishalarni hisobga olgan holda 1116 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi boshlang‘ich 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°5'58,439"*, sharqiy uzunlik* 66°51'10,271"*).*

B dan A gacha Shahrisabz tuman yerlari bilan 3-9 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

3-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 126 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 473 metr, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 479 metr masofada o‘tadi va to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tib avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 83 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 73 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 191 metr masofani o‘tib,qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 900 metr

masofani o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1790 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°5'10,942"*, sharqiy uzunlik* 66°52'38,125"*).*

4-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 134 metr masofani o‘tib keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°5'7,241"*, sharqiy uzunlik* 66°52'43,584"*).*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1858 metr masofani o‘tib keyin ariqqa tutashadi va shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 269 metr masofani dala yo‘liga tutashadi va dala yo‘lining avval shimol tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda yo‘lning sharq tomoni bilan 338 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr,so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 733 metr masofani o‘tib masofani o‘tib 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°3'28,121"*,sharqiy uzunlik* 66°52'50,136"*).*

6-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 852 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1137 metr keyin janubiy yo‘nalishda 1224 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘iga o‘tadi hamda to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy yo‘nalishda 1718 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2072 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°1'18,637"*,sharqiy uzunlik* 66°50'8,259"*).*


7-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval g‘arbiy yo‘nalishda 1698 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 101 metr masofani o‘tib ariqqa tutashib ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 415 metr so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 740 metr masofani o‘tib so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib M-39 yo‘liga tutashadi va M-39 yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1512 metr masofani o‘tib Tanxozdaryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 1353 metr keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 395 metr daryo bo‘yidagi 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°2'8,098",*sharqiy uzunlik* 66°47'25,158"*).*

8-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining avval g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 526 metr keyin shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 334 metr masofani o‘tib , ariqqa tutashadi va janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 267 metr,so‘ng sharqiy yo‘nalishda 180 metr masofani o‘tib, so‘ngra qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan avval janubiy yo‘nalishda 277 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 190 metr , so‘ng sharqiy yo‘nalishda yo‘lning shimol tomoni bilan 1007 metr masofani o‘tib,so‘ngra M-39 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 2364 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°3'39,120"*, sharqiy uzunlik* 66°48'47,326"*).*

9-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘liga tutashib yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 4411 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 208 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik* 39°6'0,045"*, sharqiy uzunlik* 66°49'3,227"*).*

Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahri
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Shartli belgilar

1 **Chegaraning burilish nuqtalari**

Shaharlar va shaharchalar chegarasi

Tumanlar chegarasi

Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha ***Kitob tumani yerlari***

B dan A gacha ***Shahrisabz tumani yerlari***